

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI FAKULTETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK: O'TMISHI, BUGUNI, ISTIQBOLLARI



Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami

2020-yil 6-noyabr



"FIRDAVS-SHOH" NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2020

УДК 821,512.133.09 (062)
ББК 83.3 (5Ў) я73
К 37

Ushbu to'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-texnik kengashining 2020-yil 24-dagi 4-sonli yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Bahodir Karimov – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi
Xurshid Do'stmuhammad – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

Tahrir hay'ati

Shuhrat Sirojiddinov	f.f.d., professor, ToshDO'TAU rektori
Akmal Saidov	O'zR FA akademigi, yu.f.d., professor
Muhammadjon Xolbekov	f.f.d., professor (SamDCHTI)
Uzoq Jo'raqulov	f.f.d., professor (ToshDO'TAU)
Ulug'bek Hamdamov	f.f.d. (ToshDO'TAU)
Gulnoz Xalliyeva	f.f.d., professor (O'zDJTU)
Qosimboy Ma'murov	f.f.n., professor (ToshDO'TAU)
Dilnavoz Yusupova	f.f.d., dotsent (ToshDO'TAU).
Bahodir Xoliqov	f.f.f.d., ToshDO'TAU (<i>mas'ul muharrir</i>)
Mahmadiyor Asadov	ToshDO'TAU tayanch doktoranti (<i>mas'ul kotib</i>)
Zebo Sabirova	ToshDO'TAU o'qituvchisi (<i>mas'ul kotib</i>)

Qiyosiy adabiyotshunoslik: o'tmishi, buguni, istiqbollari (matn) Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari тўплами. – Т.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2020. – 284 bet.

ISBN 978-9943-6695-8-1

Mazkur anjuman materiallariga filologiyaning bugungi kunda dolzarb deb qaralayotgan qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va komparativistika masalalariga oid ilmiy maqola va tezislar kiritilgan. To'plamdan o'rin olgan maqolalarda qiyosiy adabiyotshunoslikning umumnazariy va uslubiy muammolari, o'zbek mumtoz adabiyoti, qiyosiy filologiya va folklorshunoslik, o'zbek adabiyoti jahon badiiy tafakkuri kontekstida o'rganilishi, o'zbek va jahon adabiy aloqalari, tarjimashunoslik va tarjima tanqidi kabi dolzarb masalalar yoritilgan. Filologiya sohasiga oid ilmiy nashrlari bilan ilm ahli nazariga tushgan ustoz-olimlar: filologlar, pedagoglar, adabiyotshunos va tarjimashunoslar bilan bir qatorda, shu jabhalarda ilmiy kuzatishlarini endigina boshlagan tadqiqotchilar, doktorantlar va magistrantlarning ham tadqiqot natijalari mazkur to'plamda tartiblangan.

To'plam adabiyotshunoslik, jumladan, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida tadqiqot olib borayotgan hamda shu sohaga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan, shuningdek, “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanini o'qitishda oliy o'quv yurti talabalari uchun ham qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

УДК 821,512.133.09 (062)
ББК 83.3 (5Ў) я73

ISBN 978-9943-6695-8-1

© “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2020

Rafiqjon ZARIPOV. Kognitiv rivojlanish va tarjima jarayonida ikki tillilik va ko'p tillilikning rolli	194
Гуларух КАХХОРОВА. Юкламаларнинг таржима лугатларида берилиши	197
Umida ABDULLAYEVA. Translation strategies for advertising discourse texts: best known tv commercials in uzbek	200
Hamza AVAZOV, Shuhrat XIDIROV. The importance of translating authentic texts during the learning process	202
Д.Б. АБДУКАЮМОВ, В.А. ОРЕХИН-РЫЖИНА. Особенности и проблемы перевода художественных текстов	205
Азиза ЖАЛОЛОВА, Мансур БАБАЕВ, Ўғиллой МАВЛОНОВА. Реалиялар (американизмлар) таржимаси муаммоси ва унинг хорижий тилларни ўқитишдаги ўрни	208
Дилафрўз КАРИМОВА. Бир эртақнинг уч таржима варианты хусусида	212
Дилноза САБУРОВА, В.А. ОРЕХИН-РЫЖИНА. Таржимоннинг бир сўзи	215
Муаттар МАХМУДОВА. Садриддин Салим Бухорийнинг таржимон бўлиб шаклланиш омиллари	217
В.А. ОРЕХИН-РЫЖИНА. О проблемах адекватности в преподавании перевода	219

VI. ILMİY AXBOROTLAR

Mavlyuda GADOEVA. Conceptual analysis of phraseological units with the somatism component in the system of non-related languages	223
D.Sh. SHARIPOVA, M.A. GAYBULLAYEVA, Z. ADIZOVA. Methods of developing skills and abilities in learning a foreign language	227
Dilnoza SHARIPOVA, Malika OBLOKULOVA, Dilnoza ASKAROVA. Some analysis and considerations about symbols	229
Rano AKHMEDOVA. Classification and lexical-semantic features of somatic phraseological units related to culture in english and uzbek languages	232
Rano AKHMEDOVA, Inobat NARZIYEVA. Classification of authentic materials and the role of their usage in foreign language lessons	234
Фирюза НАРЗУЛЛАЕВА. Инглиз ва ўзбек тилларида "кўз" сўзининг полисемантиклиги	236
Dilnoza HABIBULLAYEVA. Jahon adabiyoti va tibbiyot	239
B.S. ABDURAZAKOV. Some types of semantic correlates of phraseological configurations and its structural-semantic varieties	242
R.A. ACHILOVA, M.T. BABAYEV, O.A. ATAMURADOVA. Benefits of grammar in english classes	244
Dilshoda MAMATOVA. O'zbek talabalarining xitoy tili miqdor to'ldiruvchisini o'rganishini tadqiq qilish	246
O'g'illoy MAVLONOVA. Vaziyatli kinoya va misollar orqali uning tahlili	249
Shahnoza KARIMOVA. Poetik sintaksis haqida	251
Dilnoza ZIYAYEVA. Syntactical characteristics of english speech verbs	254
Рисолат АЧИЛОВА. Автономазияларнинг ўзбек бадиий асарларидаги ўрни	258
Нозима ДЖУМАЕВА. Инглиз ва ўзбек эртақларида ўхшаш вазифали сехрли предметлар талқини	261
Shahnoza KARIMOVA, Dinara IBRAGIMOVA. Og'irlik va uzunlik ma'nosidagi numerativlar	264
Мохичехра НИЯЗОВА. Инглиз ва ўзбек никоҳ туйларида айтиладиган олқишларнинг го'явий-шаклий муштараклиги	266
Меҳринисо ОЧИЛОВА. Электрон лугат – лексикография ривожинингянги босқичи маҳсули	268
Nilufar OCHILOVA. "Do'nan" hikoyasida "ot" obrazi	274
Диёра БОБОНАЗАРОВА. Дискурс анализ – как современный метод интерпретации информации	276
Zarnigor KHAYATOVA. Relationship between uzbek and english literature: ethno-cultural specificity of concept studies	278

OG'IRLIK VA UZUNLIK MA'NOSIDAGI NUMERATIVLAR

*Shahnoza KARIMOVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*

*Dinara IBRAGIMOVA,
Buxoro davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada og'irlik va uzunlik ma'nosidagi numerativlar haqida so'z yuritilgan. Maqolada Qadimgi Angliyadagi og'irlik va uzunlik o'lchovlarining hozirgi o'lchovlarga tenglashtirilganini va ularning ayrimlarini iste'moldan chiqqanligi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, leksika, o'lchov, numerativlar, miqdor, og'irlik, uzunlik;

Аннотация. В этой статье числители рассматриваются с точки зрения веса и длины. В статье содержится информация о том, как измерения веса и длины в Старой Англии были привранны к текущим измерениям и почему некоторые из них вышли из употребления.

Ключевые слова: лингвистика, лексика, измерение, нумераторы, количество, вес, длина.

Tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida qaraladigan leksikologiya tilning lug'at tarkibini o'rganadi. Leksikologiya grekcha "leksika" so'zidan olingan bo'lib, tilning lug'at tarkibini o'rganadi. Tilda mavjud bo'lgan so'zlarning hammasi lug'at tarkibi yoki leksika deb yuritiladi. Lug'at tarkibining quyidagi aspektlari mavjud:

- a) Tilning asosiy birligi bo'lgan so'z muammosi;
- b) Til lug'at tarkibi qurilishi;
- d) Lug'aviy birliklarning qo'llanilishi
- e) Lug'at tarkibining boyishi, taraqqiyoti va boshqalar.[1]

Qadimdan odamlarning oyoq va qo'llari, xususan barmoqlari uzunlik o'lchovi biriklari sifatida keng qo'llangan. Yog'och, quloq, gaz kabi so'zlarning o'lchov birligi sifatida qo'llanilgani ma'lum.

Inglizlarning ham o'zlariga xos standartlashtirilgan uzunlik o'lchov birliklari mavjud. Ular quyidagilar :[2]

Dyum – bosh barmoq uzunligidagi birlik bo'lib, 25,4 mm.

Link – 7,92 inch yoki dyum.

Span – qo'l kengligi bilan hisoblaganda, bosh barmoqning uchidan kichkina barmoqqacha, 3 ta kaft, ya'ni 9 dyumga teng bo'lgan birlik.

Fut – Anglo-Saksonlar bosqiniga qadar, Rim futi 11,65 dyum yoki 296 mm sifatida qo'llanilgan. Ammo Anglo-Saksonlar o'zlarining yangicha miqdor, ya'ni 1 fut 13,2 dyum yoki 335 mmni qabul qilishdi. Bu 4 ta kaft yoki 12 ta bosh barmoqqa teng edi. 13-asrning oxirlarida esa 304,8 mmga barobar bo'lgan futdan foydalana boshlandi. Bugungi kunda 12 dyum 1 futga teng, ya'ni 305 mm.

Kubit – barmoq uchidan tirsakkacha yoki 18 dyumga teng

Yard – 3 fut = 36 dyum yoki 0,914 metr.

Ell – keng yoyilgan qo'lning barmoq uchidan yelkagacha bo'lgan uzunlik bo'lib, 45 dyumga teng. Asosan mato hamda kiyimlarni o'lchashda ishlatiladi.

Fathom – dengiz sathini, chuqurligini o'lchashda foydalaniladi, 6 futga teng. Keng yoyilgan qo'l barmog'idan ikkinchi qo'l barmog'igacha bo'lgan uzunlik bilan barobar.

Rod – 25 link = 5 metr. Bu uzunlik o'lchovidan asosan, yerni o'lchash hamda arxitekturada foydalaniladi. Bugungi kundagi rod Anglo-Saksonlar davridagisi bilan bir xil moslikka ega.

Chain – 4 rod yoki 20 metrga barobar bo'lib, bu uzunlik o'lchovidan asosan, kriket maydonida foydalaniladi.

Furlong – 10 chain yoki 200 metr ga teng uzunlik bo'lib, yer haydash hamda otlar musoboqasida bu birlik qo'llaniladi.

Mil – Arablarda bir mil ko'z bilan ko'rinadigan joygacha bo'lgan masofani anglatgan. Navoiy asarlarida mil so'zi 5 ma'noda ishlatilgan. Shulardan biri, katta yo'llarda bir yog'och masofani ko'rsatish uchun qo'yilgan belgi.

Mil arabcha so'z bo'lib, bir farsaxning uchdan bir ($1/3$) qismiga teng ekanligi qayd etadi. Mil lotincha – Milia yoki milla ming qadam ma'nosida qo'llangan. Ko'pligi alyol. Qadimgi Rumda 1420 metr, fransuzlarda 1482 m. Eronda esa ko'zi sog'lom kishining ko'z bilan ko'rilishi mumkin bo'lgan uzoqlikka nisbatan ishlatiladi.

Biz tadqiq etayotgan Angliyada esa bu uzunlik 15 daqiqalik yo'lni yoxud 1760 yard, 8 furlong yoki 1610 metr, ya'ni 1,61 kilometrni tashkil etadi.

Liga – bir soatlik yo'lni bildirib, 3 milga teng uzunlik hisoblanadi. Bu uzunlik o'lchovi, asosan, shoirlar tomonidan qo'llaniladi.

Biz yuqorida tahlil etgan uzunlikni bildiruvchi numerativlar kundalik hayotda faol hamda nafaol ishtirok etishiga ko'ra farqlanadi. Shundan kelib chiqib, dyum, yard, fut hamda mil inglizlarning har kungi hayotida hamda leksikasida tez-tez uchraydi. Link, furlong, chain, rod va boshqa birliklar esa kam miqdorda foydalaniladi.

Ma'lumki, insoniyat hayotida og'irlik o'lchov birliklariga doimiy ehtiyoj bo'lgan. Chunki bu birlik insoniyat paydo bo'lgandan buyon, to bugungi kunga qadar uning kundalik ehtiyojlarini qondirish hamda ularning miqdorini ifodalash maqsadida ishlatilgan.

Angliyada og'irlik o'lchov birliklari uchta guruhga bo'linadi: [2]

- 1) Troy og'irlik o'lchov birligi, qaysiki qimmatbaho metallarni o'lchashda ishlatiladi;
- 2) Avordyupois og'irlik o'lchov birligi, kundalik hayotda asosiy hamda keng ko'lamlil maqsadlarda ishlatiladi;

3) Aptekar og'irlik o'lchov birligi, ilmiy maqsadlarda foydalaniladi.

Angliyaning dastlabki eng kichik og'irlik o'lchov birligi gran bo'lib, u 0,065 gramga teng. Troy funti esa 1824-yilgi qonunga muvofiq, og'irlik o'lchov birliklarining eng asosiysi sifatida qabul qilingan edi. Biroq, 1879-yil 1-yanvardan boshlab, Angliya hukumati bu birlikdan foydalanishni bekor qildi. Faqatgina Troy draxmasi hamda uning mayda birliklari saqlanib qoldi. 1855-yilda qabul qilingan "Og'irlik o'lchov birliklari tog'risidagi qonun" esa Avordyupois funtini eng asosiy o'lchov birligi sifatida e'tirof etdi. Bugungi kunda funt og'irlik o'lchov numerativlarining fundamental asosi hisoblanadi. Qolgan birliklar esa uning bir bo'laklari yoki undan o'sib chiqqan birliklardir.

Avordyupois funti hozirgi kunda Angliyada iste'molda bo'lgan funtdir. Va u, asosan, og'ir tovar va mahsulotlarning og'irligini o'lchashda ishlatiladi. Bir funt 16 untsiya yoki 7000 granga teng bo'lib, bu 0,45 kilogrammni tashkil etadi. Har bir untsiya esa o'z ichida 16 draxmaga bo'linadi. Bu esa taxminan bir choy qoshiq shakar yoki 28 grammga barobar. Bir draxmaning o'zi 1,77 grammga teng.

Avordyupois birliklari orasida funtdan yuqori birliklar quyidagilar: [3]

Klov – 7 yoki 10 funtga teng bo'lib, asosan, jun hamda pishloqqa nisbatan ishlatiladi.

Ston – 14 funt yoki 6,35 kilogramm. Ko'pincha tana vaznini o'lchashda foydalaniladi.

Kvarter – 2 stonga teng bo'lib, kam ishlatiladi. Bu taxminan 28 funt yoxud 12,7 kilogramm bilan barobar.

Sentner – 4 kvarter, ya'ni 112 funt yoki 50,8 kilogrammga teng bo'lib, bir qop sement og'irligidagi vazn.

Tonna – 20 sentner = 2240 funt. Taxminan 14 ta odam og'irligi bilan barobar.

1879-yilda bekor qilingan Troy funti 5760 granga teng bo'lib, 12 untsiyaga bo'lingan. Bundan ko'rinadiki, Troy funti Avordyupois funtiga nisbatan yengil bo'lgan, ammo Troy untsiyasi 480 granga teng bo'lib, 437,5 granni tashkil etadigan Avordyupois untsiyasidan og'irroq. 1878-yildan Troy funti iste'moldan chiqqan bo'lsa-da, ammo untsiya hamon foydalanishda.[4]

Аптекар og'irlik sistemasida ham untsiya birligi mavjud bo'lib, u ham 480 granga teng. Bu ikkala sistemada eng asosiy og'irlik o'lehov birligi untsiya hisoblanib, qolgan birliklar unga nisbatan belgilanadi. Yuqorida aytib o'tgan 480 gran 8 draxmaga, bu draxmalarning har biri esa 3 skrupulga bo'linadi. Bir skrupul 20 gran, ya'ni 1,3 grammga teng sanaladi.

Draxmaning miqdori ham bu tizimlarda farq qiladi. Avordyupois tizimida bu birlik 1,77 grammni tashkil etgan bo'lsa, Troy hamda aptekar tizimida 3,89 grammni hosil qiladi.

O'zbek tili bilan solishtiradigan bo'lsak ba'zi og'irlik o'lehov birliklari o'zbek tilidagi quyidagi numerativlar bilan mos tushadi: stone—6 kilogramm; funt—454 gramm; untsiya—31 grammga teng.

Uzunlik misolida solishtiradigan bo'lsak: 1 mil—1609 metr, yard—91 santimetr, 1 fut—30 santimetr hamda 1 dyum 2,5 santimetrga barobar sanaladi. [5]

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abuzalova M, Yo'ldosheva D. Tilshunoslikka kirish.—Toshkent,2018.Universitet—B. 72.
2. Edward R.Z. British weights and measures: A history from antiquity to the seventeenth century.—University of Wisconsin.
3. Alexander Justice. A general discourse of weights and measures. —London.,1707.
4. www.wikipedia.com
5. Гак В.Г. Лисоний белги ассиметрияси ва терминологиянинг умумий муаммолари.— Самарканд,2002.—Б. 183.



ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК НИКОХ ТҶЙЛАРИДА АЙТИЛАДИГАН ОЛҚИШЛАРНИНГ ҒОЯВИЙ-ШАКЛИЙ МУШТАРАКЛИГИ

Моҳичехра НИЯЗОВА,

Бухоро давлат университети ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада инглиз ва ўзбек халқлари орасида никоҳ тўйи маросимларида айтиладиган олқишларнинг ғоявий-шаклий жиҳатдан ўхшаш хусусиятлари таҳлилга тортилган.

Калит сўзлар: олқишлар, никоҳ тўйи, дуо, келин-куёв, маросимлар.

Аннотация: В данной статье анализируются идеологические и формальные сходные особенности провозгласимых тостов на свадьбах английских и узбекских народов

Ключевые слова: аплодисменты, намолвка, жених — невестка, мероприятия.

Ўзбек халқи кўпгина бошқа халқлардан ўзининг меҳмондўстлиги, болажонлиги, тўйсеварлиги билан ажралиб туради. Халқимиз йиллар давомида емай-ичмай, фарзандлари учун тўйлар қилиш мақсадида бор-будларини жамлайди ва тўй куни элга ош бериб, барча орзу-тилаklarини амалга оширишади.

Ўзбеклар орасида тўйнинг бешик тўйи, суннат тўйи, мучал тўйи, никоҳ тўйи, пайгамбар тўйи, ховли тўйи ва хоказо каби ранг-баранг кўринишлари кенг тарқалган. Шулардан никоҳ тўйи бўй етган йнгит-кизнинг турмуш қуришини расмий қайд этиши жиҳатидан ажралиб туради. Бу қадимий ва анъанавий урф-одатлар, ранг-баранг расм-русумларга бой бўлган тўй турининг жуда кўп узвлари ўз олқишларига эга. Масалан, одатимизга кўра, янгилар етовида куёв хонадонига кириб келган келинчакнинг оёғи тагига остона узра пояндоз солинади. Бошидан ширинликлар сочилади. Шу пайтда келинни қабул қилиб олаётган томондан бирор ёши улуг аёл: “Келинимизнинг пойқадами қутлуг келсин, босган ерлари зар бўлсин, қадами теккан жой гулга, нурга тўлсин” [1] деб, яхши ниятлар билдиради.

Келин-куёв чимилдикка киргач, ёши улуглар тугундан новвот бўлагини олиб, чимилдикнинг бир учига иладилар ва дуога қўл кўтариб: “Омин, кўшгани билан кўша